

SO'Z BIRIKMALARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV**Isaeva Dilyafroz**

Nukus shahri 37-maktab qoraqolpoq tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'z birkmasi va gap bo'laklari mavzusida teng va tobe bo'g'lanish, so'z birikmasi va uning turlari, bog'lanishdagi grammatik vositalar, so'z birikmalarining ibora, qo'shma so'z va gaplardan farqi, gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, ularning qanday turkumlar bilan ifodalanishi, ularning o'rni, bog'lanish yo'llari atroflicha to'liq bayon qilingan. So'z birikmasi va gap bo'laklari mavzusini innovatsion texnologiyalar asosida o'rganishda mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi namunalari ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: so'z birikmasi, tobe bog'lanish, grammatik vositalar, ibora, qo'shma so'z, gap bo'laklari, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'z grammatik va ma'no jihatdan birikib, so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi hokim so'z va tobe so'zdan tuziladi:

- 1) Tobe so'z – so'roqqa javob bo'lgan so'z(har doim tobe so'z birinchi keladi)
- 2) Hokim so'z – so'roqda qatnashgan so'z(har doim ikkinchi keladi)

Baland bino – qanday bino? Demak, baland – tobe so'z, bino – hokim so'z!

So'z birikmalarida har doim birinchi tobe so'z, keyin hokim so'z keladi. So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi(xullas, fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan): shaharning ko'chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarning beshtasi, beqiyos o'lka, katta qishloq.

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z faqat fe'l bilan ifodalanadi: kitobni o'qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, ta'sirli so'zlammoq, zavq bilan o'qimoq.[1]

So'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari.

So'z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi bitishuv deyiladi: tez termiq, chiroyli gapirmoq, ishchan o'quvchi, mehribon ustoz. Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi boshqaruv deyiladi: do'stlarni hurmat qilmoq, g'alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq, sharoitga ko'ra yondashmoq. Bilan ko'makchisi savolda qatnashmasa –bitishuv! Zavq bilan tinglamoq, ishtaha bilan yemoq, ibo bilan kelmoq – bitishuv!

Taqqoslang:

- a) Qoshiq bilan yemoq – nima bilan yemoq –boshqaruv;

b) Maroq bilan eshitmoq – qay holda eshitmoq –bitishuv.

Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchasi yordamida bogʻlanishi moslashuv deyiladi: kitobning muqovasi, xonalarning kattarogʻi, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

Teng bogʻlanish va tobe bogʻlanish.

Soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi kki xil boʻladi:

1) Teng bogʻlanish – ikki soʻzning teng huquqli, biri ikkinchisiga boʻysunmay bogʻlanishi: opam va kitob, uy va tom kabi. Bir xil gap boʻlagi vazifasida kelib, koʻpincha bir xil soʻroqqa javob boʻluvchi boʻlaklarning oʻzaro teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanishi teng bogʻlanish deyiladi. Quyidagi vositalar teng bogʻlovchi vazifasini bajaradi:

a) biriktiruv bogʻlovchilari – va, hamda, bilan;

b) zidlov bogʻlovchilari – ammo, lekin, biroq;

c) ayiruv bogʻlovchilari – yo, yoki, yo-yo, goh-goh, dam-dam;

d) gumon yuklamasi – na...na;

e) kuchaytiruv-taʼkid yuklmasi - u, -yu, -da.

f) Sanash ohangi. Gapdagi soʻzlar sanash ohangi yordamida bogʻlanganda ular vergul bilan ajratiladi va teng bogʻlanishga olinadi: Navoiy, Bobur asarlari. Bunda Navoiy va Bobur soʻzlari teng bogʻlangan.

2) Tobe bogʻlanish – bir soʻz(tobe soʻz)ning boshqa bir soʻz(hokim soz)ga boʻysunishi orqali bogʻlanishi: opamning kitobi, uyning tomi kabi. Bogʻlovchi vositalar:

a) Koʻmakchilar;

b) Kelishik qoʻshimchalari;

c) Egalik qoʻshimchasi;

d) Ohang(tobelantiruvchi);

e) Shaxs-son (ega kesim moslashuvi).

Soʻzlarning teng bogʻlanishi soʻz qoʻshilmalarini hosil qiladi. Soʻz qoʻshilmasida har bir soʻz maʼno mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: opam va kitob, siz bilan biz kabi.[2]

Sifat+ot shaklidagi soʻz birikmalarida tobe va hokim soʻzlarning oʻrni almashtirilsa, gap hosil boʻladi. M: chiroyli qiz – qiz chiroyli(dir), katta koʻcha –koʻcha kata(dir). Shubhasiz, barkamol avlodning buguni va ertasi bor.

Soʻz birikmalari: avlodning buguni, avlodning ertasi, barkamol avlodning. Ega har doim kesimga bogʻlanadi va soʻz birikmasiga olinmaydi. Tobe bogʻlanish soʻralganda esa olinadi.

1). avlodning buguni – moslashuv, buguni - hokim soʻz, avlodning - tobe soʻz, qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchasi vositasida bogʻlangan, ot+ravish, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

2). avlodning ertasi - moslashuv, ertasi- hokim soʻz, avlodning-tobe soʻz, qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchasi vositasida bogʻlangan, ot+ravish, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

3).barkamol avlod – bitishuv, avlod- hokim soʻz, barkamol- tobe soʻz, maʼno va ohang yordamida birikkan, sifat+ ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

Bu gapda ega ikkita boʻlganligi sabab 5ta tobe bogʻlanish bor, tobe bogʻlanishga ega va kesim moslashuvi ham kiradi. Buguni va ertasi soʻzi teng bogʻlangan. Shubhasiz,(kirish soʻz) barkamol(sifatlovchi aniqllovchi) avlodning(qaratqich aniqllovchi) buguni(ega) va ertasi(ega) bor(kesim).Bu bodomqovoq qiz xushfeʼl tabiati bilan katta-yu kichikning olqishiga sazovor boʻldi.Ushbu gapda 7ta soʻz birikmasi, 8ta tobe bogʻlanish bor. [3]

Soʻz birikmalari:

1). olqishiga sazovor boʻldi – boshqaruv, sazovor boʻldi –hokim soʻz, olqishiga – tobe soʻz, joʻnalish kelishigi yordamida bogʻlangan, ot+feʼl, toʻldiruvchili birikma, feʼlli soʻz birikmasi;

2). kichikning olqishiga – moslashuv, olqishiga – hokim, kichikning - tobe soʻz, qaratqich va egalik qoʻshimchalari yordamida birikkan, otlashgan sifat+ ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

3). kattaning olqishiga - moslashuv, olqishiga – hokim, kattaning - tobe soʻz, qaratqich va egalik qoʻshimchalari yordamida birikkan, otlashgan sifat+ ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

4). tabiati bilan sazovor boʻldi – boshqaruv, tabiati bilan– tobe soʻz, sazovor boʻldi – hokim soʻz, koʻmakchi yordamida birikkan, ot+feʼl, toʻldiruvchili birikma, feʼlli soʻz birikmasi;

5). xushfeʼl tabiati – bitishuv, tabiati – hokim soʻz, xushfeʼl – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, sifat+ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

6). bodomqovoq qiz – bitishuv, qiz – hokim soʻz, bodomqovoq – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, sifat+ ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

7). bu qiz – bitishuv, qiz – hokim, bu – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, olmosh+ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi.

Bu (sifatlovchi aniqllovchi) bodomqovoq (sifatlovchi aniqllovchi) qiz (ega) xushfeʼl (sifatlovchi aniqllovchi) tabiati bilan(toʻldiruvchi) katta-yu kichikning (qaratqich aniqllovchi) olqishiga (toʻldiruvchi) sazovor boʻldi(kesim).[4]

Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda 6ta soʻz birikmasi, 7ta tobe bogʻlanish bor.

1). mukammal egallagan – bitishuv, egallagan – hokim, mukammal – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, sifat+feʼl, holli birikma, feʼlli soʻz birikmasi;

2). tarmoqlarini egallagan – boshqaruv, egallagan –hokim, tarmoqlarini – tobe soʻz, tushum kelishigi vositasida birikkan, ot+feʼl, toʻldiruvchili birikma, feʼlli soʻz birikmasi;

3). barcha tarmoqlarini – bitishuv, tarmoqlarini – hokim, barcha – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, olmosh+ot, aniqllovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

4). fanining tarmoqlarini – moslashuv, tarmoqlarini –hokim, fanining – tobe soʻz, qaratqich va egalik qoʻshimchalari vositasida birikkan, ot+ot, aniqlovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

5). riyoziyot fanining – bitishuv, fanining –hokim, riyoziyot – tobe, ohang va maʼno vositasida birikkan, ot+ot, aniqlovchili birikma, otli soʻz birikmasi;

6). bu olim – bitishuv, olim – hokim, bu – tobe soʻz, ohang va maʼno vositasida birikkan, olmosh+ot, aniqlovchili birikma, otli soʻz birikmasi.

Bu (sifatlovchi aniqlovchi) olim(ega) riyoziyot (sifatlovchi aniqlovchi) fanining (qaratqich aniqlovchi) barcha (sifatlovchi aniqlovchi) tarmoqlarini (toʻldiruvchi) mukammal (ravish holi) egallagan(kesim).

Soʻz birikmasi aʼzolari orasidagi bogʻlanish, yaʼni tobelanish uch xil: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turlarining oʻziga xos xususiyatlari va farqlari aʼzolari biriktiruvchi koʻrsatkichlar yoki boshqa vositalardan kelib chiqadi. Masalan, tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varagʻi. Maʼlum boʻladiki, birikmada tobe soʻzning qaysi shaklda kelishi koʻpincha, uning hokim soʻziga bogʻliq boʻlsa, baʼzan har ikkala aʼzo bir-birining qanday shaklda boʻlishini belgilab qoʻyadi. Bitishuvda birikkan soʻzlarning oʻzaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasi-tobelanishda morfologik koʻrsatkichlar boʻlmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Bunda tobe soʻz ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi. Zero, tobe aʼzo sifatida namoyon boʻlayotgan soʻz maʼnoviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan boʻladi. Misollar: qizil gul, oq qogʻoz. , bitishuv aloqasida tartibi va ohang muhim rol oʻynaydi. Bunda tobelik tartibi va joylashuvdan, soʻzlarning grammatik xususiyati va maʼnosidan anglashilishi ayon boʻlib turadi. Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan soʻz birikmalar tarkibida amal qiladi. Birikish uchun faqat tobe aʼzolar tobelovchi qoʻshimcha olgan soʻz birikmalar boshqaruv yoʻli bilan bogʻlangan deyiladi. Bunda hokim soʻz tobe soʻzning qanday shaklda boʻlishini boshqaradi. Masalan, kitobni oʻqimoq birikmasida tobe soʻzning tushum kelishigi shaklida kelishi oʻqimoq feʼlining oʻtimliliigi bilan belgilangan. Moslashuv aloqada soʻz birikmalarining ikki tomonlama grammatik shakllangan turi boʻlib, bunda tobe aʼzo hokim aʼzoga, hokim aʼzo tobe aʼzoga muvofiq ravishda bogʻlovchi vosita oladi. Masalan, ukamning daftari, sizning uyingiz kabi. Moslashuv atamasi har ikkala aʼzoning bir-birini taqozo qiluvchi morfologik vositalarga egaligi maʼnosini anglatadi. Moslashuv aloqasida tobe aʼzo qaratuvchi, hokim aʼzo qaralmish deb yuritiladi. Gapda biror soʻroqqa javob boʻlgan va oʻzaro tobe bogʻlangan soʻz yoki soʻz birikmasi gap boʻlagi deb ataladi. Gap boʻlaklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. Soʻzlarga soʻroq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qoʻshimchalar olishi tom maʼnoda gap boʻlaklarining turlarini belgilashda asos boʻla olmaydi. Gap boʻlaklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, toʻldiruvchi toʻldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Oʻquvchilar umumiy oʻrta taʼlimda ona tili fanidan oʻzlashtirgan bilimlarini, koʻnikma va malakalarini oʻrta maxsus taʼlim – akademik

litseyda, kasb-hunar maktablarida davom ettirish, yanada boyitish imkoniga egadirlar. Davr talabi bilan bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari dadil kirib kelmoqda. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar maktablarining dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o'zbek tilini kengroq o'rganish imkonini beradigan axborot texnologiyalaridan, shu jumladan, elektron darsliklardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Bugina emas, elektron variantdagi badiiy asarlar ham kitobxonlarga havola qilinmoqda. Bularning barchasi bugungi yoshlarimizning fan asoslarini chuqur egallashlariga, og'zaki va yozma nutq madaniyatlarini takomillashtirishga, ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya talablari asosida turli usulda o'tkaziladigan dars shakllari xilma-xil bo'lib, ular o'z ichiga ham an'anaviy, ham noan'anaviy dars tiplarini qamrab oladi. Shu ma'noda, kasb-hunar maktablarda o'zbek tili fanini ham innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'rganish nihoyatda samarador ahamiyatga ega. Kasb-hunar maktab o'quvchilarining intellektual salohiyati, yosh va fiziologik xususiyatlari, o'zbek tilining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, mazkur fanga tegishli mavzularni pedagogik texnologiyaning turli usullaridan foydalanib o'rganish mumkin. Bu xususiyatlar gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganishda ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur mavzularni o'rganish jarayonida o'qituvchi turli xil shakl va mazmundagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, ona tili fanini samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shadi. O'zbek tilining qaysi bo'limi, qaysi mavzusi bo'lmasin, ularning deyarli barchasida ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanish imkoni katta. Bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayoni har bir fan o'qituvchisidan katta mas'uliyat, yuksak salohiyat, doimiy izlanishlarni talab qilmoqda. Shunga ko'ra o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan har qanday mas'uliyatli ona tili o'qituvchisi darslarni dasturiy talablar asosida shakllantirsa, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan mahorat bilan foydalana olsa, ona tili ta'limining samaradorligiga munosib hissa qo'shadi, o'quvchilarning teran bilimli, yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topishlariga erishadi.[5]

Xulosa

Bugungi kunda asosiy e'tibor o'quvchilarga fan bo'yicha chuqur bilim berishga bilim va ko'nikmalarini hayotda tatbiq qilib, amalda qo'llay bilishga qaratilgan. Ta'lim jarayonlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan o'rinli va unumli foydalanish, o'quvchilarni mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatib, berilayotgan mavzuning oson o'rganilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. «Tilimizning tilla sandig'i». – T: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.[1]
2. Mahmudov N., va boshq. «Ona tili» 8-sinf. – T.: «Ma'naviyat», 2011. [2]

3. To'xliev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T.: 2010. [3]
4. Mengliev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi –Qarshi., 2003.[4]
5. Qodirov M., va boshq. «Ona tili» 8-sinf. - T.: «Ma'naviyat», 2011.[5]